

## MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI KREATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI VA METODIKASI

**Toshpo'latova Inobat Ulug'bek qizi**

**Namangan davlat universiteti**

**1-bosqich tayanch doktoranti**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14013051>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida kreativ fikrlashga o'rgatishga doir zaruriy ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek maqolada kreativlik, innovatsion texnologiya, maktabgacha ta'lim, maktab Yoshi kabi tushunchalar mazmuni ham yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, kreativlik, qobiliyat, pedagogik texnologiya, innovatsiya, ta'lim, tarbiya, interfaol metod.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab, shu bilan birga rangbarangdir. Ta'lim-tarbiya samaradorligiga erishishda maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etish lozim. Hozirgi davr ta'lim taraqqiyotida yangi yo'nalish innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi. Innovatsion - bu yangilik kiritish, yangilik degan ma'noni anglatadi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda pedagog faoliyatiga yangilik bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi. Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu esa maktabgacha ta'lim tashkiloti mashg'ulotlarida ta'lim-tarbiya berishda interfaol usullardan foydalanishdan maqsad shundaki, bolalarni ijodiy fikrlashga o'rgatish, muammoli vaziyatlarni yecha olish ko'nikmasini rivojlantirish, bolalarni faollashtirish va ularda do'stona munosabatlarni shakllantirish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etilayotgan mashg'ulotlarda qo'llanilayotgan interfaol usullar ta'lim samaradorligi hamda muhitini yaxshilaydi. Tarbiyachining kasbiy mahorati oshadi. Bolalar ijtimoiy muhitda, jamoasida o'z o'rnini his qila boshlaydi. Hozirgi kun talabi tez o'zgaruvchan, murakkab va o'zaro bir-biriga bog'liq dunyoda o'z o'rnini topa oladigan shaxsni tarbiyalashdir. Ta'lim innovatsiyasi deyilganda avvalo mashg'ulotlarda pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutiladi. Texnologik yondashuv asta-sekin takomillashib innovatsion xarakterga ega bo'ldi. Har qanday yangilik ehtiyoj natijasida yuzaga keladi. Ehtiyoj qanchalik yuqori bo'lsa, uning samaradorlik darajasi ham ko'tarilaveradi. Masalan maktabgacha ta'lim tizimida an'anaviy yo'nalishdagi mashg'ulotlar sistemasiga e'tibor berilganda, bu faoliyatda tarbiyachi obyekt bola subyekt rolini o'ynagan edi. Ya'ni faqat bola tinglovchi, tarbiyachi notiq sifatida gavdalangandi. Ammo barcha tajribalar ta'lim berishdagi bunday harakatlar samarali bo'la ololmasligini tasdiqladi. Natijada ta'limni samaraliligini belgilay oladigan yondashishlarni yuzaga keltirish zarurati tug'ildi. Ta'lim innovatsiyalari deyilganda ko'z oldimizga albatta yangi pedagogik texnologiyalar gavdalanadi. Pedagog ta'lim jarayonini innovatsiyalashda texnologiyani qo'llashni nazarda tutadi. Innovatsiya yangilik kiritish bo'lsa, texnologiya- mahorat, san'at sifatida gavdalanib,

innovatsion texnologiyalar yuzaga keladi. Demak, tarbiyachining innovatsion faoliyati, bu uning pedagogik mahorati belgisidir. Innovatsion texnologiyalarning har bir turi bolalarda faqatgina yangi bilim hosil qilishga xizmat qilibgina qolmasdan, balki ularda har tomonlama rivojlanish xizmat qila oladi. Ma'naviy savodxonligi sust bo'lgan inson hayot davomida uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar oldida esankirab qolishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning muammosi ko'pgina pedagog va tadqiqotchilarni qiziqtirgan muammo sifatida uzoq yillardan buyon o'rganilib kelinmoqda. Boshqa ko'pgina, sifatlar (fazilat) singari kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirib boradi. Bolaning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, histuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Maktabgacha yosh davri ijodiy faol shaxsni shakllanishi uchun eng samarali davri, chunki aynan manashu davrda psixik jarayonlar progressive o'zgarishlar kechadi va shaxsiy fazilatlar tezkor rivojlanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ijodni rivojlantirish bolalarning turli faoliyatlari orqali, masalan, kommunikativ, amaliy o'yinlar yordamida amalga oshadi.

**Maktabgacha yoshi** - bu bolaning atrofida dunyoni faol o'rganadigan davr. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarining psixologik rivojlanish xususiyatlariga ega. Yurish boshlaganida, bola juda ko'p kashfiyotlar qiladi, xonada, ko'chada, bolalar bog'chasida joylashgan narsalar bilan tanishadi. Turli narsalarni yig'ish, ularni o'rganish, mavzudan kelib chiqqan tovushlarni tinglash, bu ob'ektning qaysi fazilatlarini va xususiyatlarini borligini biladi. Ushbu davrda bolaning ingl. - figurativ va ingl. Effektiv fikrlash shakllari yaratilgan

Maktabgacha yoshdagi bolalar ko'pincha kamchiliklarini tanqid qilishadi, tengdoshlariga shaxsiy xususiyatlar beriladi, bolalar va kattalar o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, kattalar va kattalar o'rtasidagi munosabatni qayd qiladi. Biroq, ota-onalar bolalarga misol bo'la oladi. Shuning uchun, ota-onalar bolaga ijobiy ma'lumotni kiritish, shaxsiy yoki intellektual ma'lumot bo'lsin, u bolaga qo'rquv, xavotir va haqoratni keltirmasliklari kerak. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi.

Shunday qilib, kreativ fikrlashni shakllantirishda quyidagi aniq vazifalarni hal qilish kerak:

1. Bolalarning estetik va hissiy tajribasini boyitish, ularning atrofdagi voqelik haqidagi g'oyalari hajmini oshirish, ufqlarini kengaytirish.
2. Bolalar nutqini, majoziy iboralarni rivojlantirish, so'z boyligini boyitish.
3. Bolalarda qayta loyihalash, tajriba elementlarini birlashtirish qobiliyatini rivojlantirish. Bolalarda "inklyuziya" asosid rekonstruksiya qilish kabi operatsiyani shakllantirishga alohida e'tibor beriladi, bu turli xil tasvirlarni yaratish uchun bir xil elementdan foydalanishga imkon beradi.
4. Rivojlanayotgan muhitni ma'lum bir tarzda jihozlash. Tasavvurning kombinatsion mexanizmlarini shakllantirish uchun sharoit yaratish lozimdir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, kreativlikni faollashtirish usullaridan foydalangan holda tashkillashtirilgan ijodiy o'yin vazifalari, hayotiy vaziyatlar kreativ o'yin va mashg'ulotlardan foydalanish maktabgacha yosh davridagi bolalarda kreativ yondashuv

asosida estetik tarbiyani shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Kreativ tafakkurga ega bo'lgan bola mashg'ulotlarni tez o'zlashtirish, berilgan har bir ta'limiy va tarbiyaviy ta'limotlarni tezda ilg'ab oladilar va hayotga tatbiq etish xususiyatiga ega bo'ladilar. Maktabgacha yoshdanoq kreativ fikrlay oladigan estetik tafakkurga ega bo'lgan bolalar kelajakda buyuk inson bo'lib, yetishadilar va o'z navbatida kelajakda vatani ravnaqiga o'z hissalarini qo'shadilar. Shunday qilib, maxsus ta'lim jarayonida barcha bolalar kreativ va ijodiy konstruktiv muammolarni hal qilishning umumiy tamoyillarini shakllantiradilar.

### References:

1. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubi (o'quv-uslubiy qo'llanma). - Qarshi : Nasaf, 2011.
2. Ziyamammedov, Bo'ri, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnologiya-zamonaviy o'zbek milliy modeli. Toshkent. 2009.y
3. Alimov N. Maktabgacha yoshdagi bolalarni matematik ta'limga tayyorlash . Maktabgacha ta'lim - T.:2005.
4. R.G'.Qodirov "Yosh davrlari va pedagogik psixologiya"(2005)
5. "Bolalar iqtidorini erta aniqlashning psixologik-pedagogik metodikalari majmuasi".(2010)